

KELAJAKDA ISH O'RINLARI VA TEXNOLOGIYANING TA'SIRI

FUTURE JOBS AND THE IMPACT OF TECHNOLOGY

БУДУЩИЕ РАБОЧИЕ МЕСТА И ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ

Yo'ldosheva nazokat no'monjon qizi

FarDU Filologiya va tillarni o'qitish:

ingliz tili yo'nalishi 24.111- guruh talabasi

Faxriddin O'rinboevich Toshboltayev

FarDU "Axborot texnologiyalari"

kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan zamonaviy texnologiyalarning, xususan, robototexnika va avtomatizatsiya sohalarining mehnat bozori hamda ish o'rinlariga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bu texnologiyalar inson mehnatini qanday o'zgartirayotgani, yangi kasblarning paydo bo'lishi, mavjud ish joylariga va inson mehnatiga bo'lgan talabning qanday shakllanayotgani haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, maqolada kelajak mehnat tarziga moslashish uchun ta'lim va malaka oshirish tizimlarining roli ham yoritib beriladi.

Abstract

This article analyzes the impact of modern technologies, which are currently developing rapidly, in particular robotics and automation, on the labor market and jobs. It also considers how these technologies are changing human labor, the emergence of new professions, and how the demand for existing jobs and human labor is being

formed. In addition, the article highlights the role of education and training systems in adapting to the future of work.

Аннотация

В статье анализируется влияние современных технологий, которые в настоящее время стремительно развиваются, в частности робототехники и автоматизации, на рынок труда и рабочие места. Также рассматривается, как эти технологии изменяют человеческий труд, появление новых профессий и как формируется спрос на существующие рабочие места и человеческий труд. Кроме того, в статье подчеркивается роль систем образования и обучения в адаптации к будущему работы.

Kalit so'zlar. Raqamli platformalar, innovatsiyalar, avtomatizatsiya, integratsiya, globalizatsiya, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, blockchain texnologiyasi.

Keywords. Digital platforms, innovation, automation, integration, globalization, artificial intelligence, cybersecurity, blockchain technology.

Ключевые слова. Цифровые платформы, инновации, автоматизация, интеграция, глобализация, искусственный интеллект, кибербезопасность, технология блокчейн.

Kirish

Hech kimga sir emaski, globalizatsiya jarayonida turli mamlakatlardan kirib kelayotgan zamonaviy texnologiyalar yurtimizning deyarli barcha jabhalarida o'z ta'sirini ko'rsatib ulgurgan. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar tez rivojlanayotgan bir paytda, bu o'zgarishlar yangi imkoniyatlar yaratib, bir vaqtning o'zida yangi talablar va ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Masalan, kiberxavfsizlik, dasturlash va blockchain texnologiyasi kabi zamonaviy sohalarning rivojlanishi yangi kadrlar uchun ehtiyojning ortishiga olib keladi, bu esa ilg'or va maxsus ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlashni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Texnologik innovatsiyalarning, ayniqsa sun'iy intellekt, robototexnika va avtomatizatsiya sohalarining jadal rivojlanishi inson mehnatining mazmuni, shakli va unga bo'lgan talabga kuchli ta'sir ko'rsatishi bilan birga ba'zi bir sohalardagi ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning keskin kamayishiga va hatto ayrim kasblarning butunlay yo'qolishiga ham sabab bo'lmoqda. Xususan: haydovchilik, yetkazib berish xizmati, savdo va shu kabilar avtomatlashtirishning o'zlashtirilishi va sun'iy intellekt tizimlarining qo'llanilishi natijasida inson kuchi rolining minimallashtirish xavfi mavjud bo'lgan sohalar sirasiga kiradi.

Ilon Mask va yangi texnologiyalar

Bundan tashqari, sanoat inqilobchisi Ilon Mask ta'kidlaganidek: "Uch yildan keyin sun'iy intellekt yaxshi roman yozadi va fizikada yangiliklar ochadi," ya'ni, o'qituvchilikka bo'lgan talabning pasayishi va insonlarning o'z-o'zini ta'lim olish, raqamli platformalar va sun'iy intellekt yordamida bilim olish imkoniyatlarining ortishi kutilmoqda. Bunga misol sifatida hozirgi kunda ko'plab insonlar tomonidan kundalik faoliyatda foydalaniladigan va ularga istalgan masalada yordam bera oladigan ChatGPT kabi sun'iy intellekt asosidagi tizimlar keltirilishi mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJA

Texnologik taraqqiyot va sun'iy intellektning jadallashishi nafaqat ish bozorini, balki ta'lim va malaka oshirish tizimlarini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Ma'lumki, har qanday yangi g'oya yoki texnologiyaning tez va keng miqyosda tarqalishining eng samarali usullaridan biri bu ta'lim tizimi hisoblanadi. Ammo, kelajakda ishchi kuchi zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas bo'lishi uchun ta'lim tizimlari qanday o'zgarishi kerak?

O'quv dasturlarini yangilash zarurati

Ushbu texnologik rivojlanishdan samarali foydalanish, shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlar bilan integratsiyalashgan holda ishlashni o'rganish kelajakdagi muhim o'zgarishlarga moslashish uchun zaruriy omillardan biri hisoblanadi. Xususan, umumta'lim maktablari, kollejlari hamda oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga sun'iy intellekt, robototexnika va avtomatlashtirishga oid fanlarning kiritilishi texnologik taraqqiyotga moslashish uchun ilk qadam bo'lishi mumkin. Dasturlash, ma'lumotlar tahlili va kiberxavfsizlik kabi sohalarga oid qo'shimcha kurslar ham yosh avlodni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirishda muhim bosqich hisoblanadi.

Avtomatlashuvning foydali tomonlaridan yana biri shundaki, deyarli cheksiz bilim va imkoniyatlarga ega sun'iy intellektlar bilan birga ishlash insonlarga o'z malakalarini doimiy ravishda yangilab turish, stagnatsiya holatiga tushib qolmasdan yangiliklarga moslashish va rivojlanishlar uchun doimiy turtki bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonlar nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kelajak kasblari uchun zarur ko'nikmalar

Shu bilan birga, texnologik inqilobning ta'siri ostida kelajakda mehnat bozori yanada dinamik va raqobatbardosh tus oladi. Endilikda muvaffaqiyatga erishish uchun insonlardan nafaqat texnik bilimlar, balki muhim "yumshoq ko'nikmalar" — muloqot qilish, tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish qobiliyati, va jamoaviy ishlash salohiyati talab qilinadi. Texnologiya taraqqiyoti bilan yelkama-yelka boradigan inson aynan mana shunday ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxslardir.

Bundan tashqari, masofaviy ish, freelancing, va global platformalarda ishlash imkoniyatlari kengayib, ishchi kuchining geografik chegaralari tobora yo'qolmoqda. Bu esa ko'plab insonlar uchun yangi daromad manbalarini yaratadi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlardagi yoshlar uchun. Shu tariqa texnologiya global tengsizlikni kamaytirishda ham muhim rol o'ynashi mumkin.

Xulosa: yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy texnologiyalarning, ayniqsa sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning ish o'rinlariga ta'siri ikki tomonlama: u bir tomondan yangi imkoniyatlar eshigini ochsa, boshqa tomondan eski tizim va kasblarni o'zgartiradi, ba'zilarini esa yo'qotadi. Ammo, ushbu o'zgarishlar salbiy emas, aksincha insoniyatning yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'ladi. Eng asosiysi, har bir inson bu o'zgarishlarga tayyor turishi, o'zini doimiy rivojlantirishi va texnologiyalar bilan hamnafas bo'lishi lozim.

Ta'lim tizimlari va jamiyat ham texnologik yuksalishga tayyor bo'lishi, yoshlarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni ham berishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Har bir fuqaro esa raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va moslashuvchanlik kabi sifatlarni o'zida rivojlantirishi lozim.

Zero, kelajak — o'rganishga, moslashishga va yangiliklarga ochiq bo'lganlar qo'lidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.

To'raxo'jayev N., Mamatov Sh. Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning zamonaviy muammolari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2022.

Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.

OECD. The Future of Work: Employment Outlook. – Parij: OECD Publishing, 2021.

Shodmonqulov M. Ta'lim tizimida raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va muammolar. – O'zbekiston pedagogik jurnali, 2023, №2.

Turaqulov S. Ish bozorida texnologik o'zgarishlar va yangi kasblarning shakllanishi. – Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2022, №4.